




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA  
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI  
PEDAGOGLARI**



“Kasbiy ta’lim tashkilotlari pedagoglari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

# KASBIY STANDART

## Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0017



### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu Kasbiy standart Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagoglari kasblari bo'yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

Mazkur kasbiy standart Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoriga kiritilgan Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

andragogika – kattalarni o'qitish usullari va texnologiyalarini o'rganish va asoslash bilan shug'ullanadigan fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

davlat ta'lim tashkiloti – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan tashkilot;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini oʻz ichiga olgan tizimlashtirilgan roʻyxat;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kompleks davlat akkreditatsiyasi – oʻrta maxsus, kasbiy, oliy taʼlimni va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlarini tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi – oʻrta maxsus, kasbiy, oliy taʼlimni va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlarida taʼlim dasturlari boʻyicha oʻquv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat taʼlim tashkiloti – davlat taʼlim standartlari, davlat taʼlim talablari va oʻquv dasturlariga muvofiq taʼlim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida taʼlim xizmatlari koʻrsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va oʻqitish bilan shugʻullanuvchi, shu soha boʻyicha maxsus tayyorgarlikka ega boʻlgan shaxs;

pedagogik faoliyat – taʼlim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – o'quvchilar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan faoliyat;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim dasturi – tegishli kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar bo'yicha davlat ta'lim standartlari (talablari) va kasbiy standartlarga muvofiq kompetensiya va o'quv natijalari, ta'lim mazmuni, hajmi va baholash talablarini belgilovchi o'quv-me'yoriy hujjat;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

o'quv dasturi – kasbiy ta'limning o'quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazmuni, uning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

o'quv fani – kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi;

o'quv jarayoni grafigi – ta'lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta'til vaqtlarini belgilovchi hujjat;

o'quv reja – kasbiy ta'limning muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslari hamda ularni o'rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

xalqaro akkreditatsiya – akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro ta'lim sifatini ta'minlash tarmoqlarining to'la huquqli a'zosi bo'lgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zMst 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-martdagi 4-q/q-son, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 8/1-2025-Q-son va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 3-martdagi 236-son qarori;

O'zbekiston standartlar institutining 2025-yil 18-iyuldagi № 94/MSt-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

DTS – Davlat ta'lim standartlari;

IFUT –Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

MMK- Mashg'ulotlarning Milliy klassifikatori

## II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kasbiy ta'lim sohasida muayyan kasb bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>Q seksiya: Ta'lim</p> <p>85 ta 'lim</p> <p>85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta 'lim</p> <p>85.32.0 Professional o'rta ta'lim</p> <p>85.33.0 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim</p> <p>85.5 Ta'limning boshqa turlari</p> <p>85.51. Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim</p> <p>85.52. Madaniyat sohasidagi ta'lim</p> <p>85.59. Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari</p> <p>85.51.0 Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim</p> <p>85.52.0 Madaniyat sohasidagi ta'lim</p> <p>85.59.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari</p> <p>85.6 Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat</p> <p>85.69 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat</p> <p>85.69.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ta'lim oluvchilarning bilimlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o'quv natijalariga erishishini ta'minlash, pedagogik sharoitlarni yaratish, ta'limni chuqurlashtirish va ehtiyojlarini qondirish, ta'lim dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<p style="text-align: center;"><b>Kasblar kodi va nomi:</b></p> <p>23201 O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi</p> <p>23201 Oliy ma'lumotli o'qituvchi</p> <p>23201 Katta o'qituvchi</p> <p>23201 Yetakchi o'qituvchi</p> <p>23201 Bosh o'qituvchi</p>	<p style="text-align: center;"><b>TMR dagi malaka darajasi:</b></p> <p>5</p> <p>6</p> <p>6</p> <p>6</p> <p>6</p>

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23201 O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi	A1.5	O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish	A1.01.5	Tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish
				A1.02.5	O'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
		A2.5	O'quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish	A2.01.5	Joriy, oraliq va yakuniy nazorat tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirish
				A2.02.5	O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish va hujjatlashtirish
2	23201 Oliy ma'lumotli o'qituvchi	B1.6	Ta'lim jarayonini rejalashtirish va olib borish	B1.01.6	Fan bo'yicha ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish
				B1.02.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash
		B2.6	Ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish	B2.01.6	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholash
				B2.02.6	O'quv jarayoni samaradorligini tahlil qilish
3	23201 Katta o'qituvchi	D1.6	Ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish	D1.01.6	O'quv mashg'ulotlari sifatini oshirishga qaratilgan metodlarni joriy etish
				D1.02.6	Yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish
		D2.6	O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish	D2.01.6	O'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash
				D2.02.6	Ta'lim intizomi va motivatsiyasini shakllantirish
4	23201 Yetakchi o'qituvchi	E1.6	Innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish	E1.01.6	Ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish
				E1.02.6	Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish
		E2.6	Metodik va ilmiy-uslubiy faoliyatni muvofiqlashtirish	E2.01.6	Metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish
				E2.02.6	Fan yoki yo'nalish bo'yicha metodik ishlarni muvofiqlashtirish
5	23201 Bosh o'qituvchi	F1.6	Ta'lim sifatini boshqarish va rivojlantirish	F1.01.6	Ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini monitoring qilish
				F1.02.6	Ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish
		F2.6	Pedagogik jamoani rivojlantirish	F2.01.6	O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishni tashkil etish
				F2.02.6	Pedagogik faoliyatni baholash va takomillashtirishga rahbarlik qilish

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'asis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<p>1) o'rta maxsus professional ta'lim;</p> <p>2) o'rta professional ta'lim va amaliy tajriba</p>	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	5	Ishlab chiqarish ta'limi yo'riqchisi
	5	Laborant
	5	Kasbiy ta'lim tashkiloti ishlab chiqarish ta'limi ustasi

	5	Kasbiy ta'lim tashkiloti kasbiy ta'lim ustasi
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
A1.5 O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish	A1.01.5 Tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. O'quv mashg'ulotlari uchun dars rejalarini tayyorlash
		2. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni belgilangan jadval asosida o'tkazish
		3. Amaliy topshiriqlarni tushuntirish va bajarilishini nazorat qilish
		4. O'quv mashg'ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Darsni rejalashtirish va tashkil etish
		Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish
		O'quvchilar bilan samarali pedagogik muloqot olib borish
		O'quv jarayonida texnik va o'quv jihozlaridan foydalanish
		<b>Bilimlar:</b>
		Fan bo'yicha o'quv reja va o'quv dasturlar talablari
		Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi
	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari	
	Pedagogik faoliyatning asosiy tamoyillari	
	A1.02.5 O'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish O'quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. O'quvchilarga kasbiy topshiriqlarni tushuntirish
		2. Amaliy mashqlar orqali kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish
		3. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish
		4. O'quvchilarning rivojlanish darajasini kuzatish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish
		O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish
		Amaliy mashg'ulotlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish
		Ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish
		<b>Bilimlar:</b>
Kasbga oid asosiy bilim va texnologiyalar		
Kasbiy ta'lim metodlari va yondashuvlari		
O'quvchilarda malaka shakllantirish bosqichlari		
Ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablar		
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. O'quv mashg'ulotlarini tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida sifatli tashkil etish uchun mas'ul.	
	2. Amaliy va nazariy mashg'ulotlarda mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul.	

		3. O'quv jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil pedagogik qarorlar qabul qiladi.
		4. Mashg'ulotlarni olib borishda o'z faoliyatini rejalashtirish va takomillashtirishda mustaqil faoliyat yuritadi.
A2.5 O'quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish	A2.01.5 Joriy, oraliq va yakuniy nazorat tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Nazorat turlari bo'yicha topshiriqlarni tayyorlash
		2. Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish
		3. Baholash mezonlarini qo'llash
		4. Nazorat natijalarini qayd etish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Baholash vositalarini ishlab chiqish va qo'llash
		O'quvchilarning bilimini xolis baholash
		Nazorat jarayonini tashkil etish
		Baholash natijalarini tahlil qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Baholash va nazorat turlari
		Baholash mezonlari va talablar
	Ta'lim natijalarini baholash metodikasi	
	Normativ-huquqiy hujjatlar talablari	
	A2.02.5 O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish va hujjatlashtirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. O'quvchilarning baholash natijalarini umumlashtirish
		2. Tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash
		3. O'quv hujjatlarini belgilangan tartibda yuritish
		4. Natijalarga asosanib takomillashtirish choralarini belgilash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tahliliy fikrlash va xulosa chiqarish
		Ta'lim hujjatlarini rasmiylashtirish
Statistik ma'lumotlar bilan ishlash		
O'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish		
<b>Bilimlar:</b>		
O'quv hujjatlarini yuritish tartibi		
Ta'lim natijalarini tahlil qilish usullari		
Pedagogik monitoring asoslari		
Hisobot va hujjatlashtirish talablari		
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. O'quv mashg'ulotlarini tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida sifatli tashkil etish uchun mas'ul.	
	2. Amaliy va nazariy mashg'ulotlarda mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul.	
	3. O'quv jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil pedagogik qarorlar qabul qiladi.	

		4. Mashg'ulotlarni olib borishda o'z faoliyatini rejalashtirish va takomillashtirishda mustaqil faoliyat yuritadi.
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		<p>Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter, proyektor yoki interaktiv doska, Internet, Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturlarini (Word, Excel, PowerPoint) yaxshi darajada bilish, elektron pochta bilan ishlash, fayllarni tizimlashtirish, USB, printer, skaner kabi qurilmalardan foydalanish;</p> <p>Onlayn darslar uchun Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalardan, mashg'ulotlarda video ta'lim vositalarini foydalanish;</p> <p>Proyektor, interaktiv doska, elektron jurnallardan foydalanish ko'nikmalari, LMS (Learning Management System) tizimlarini bilish;</p> <p>Fan sohasi bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni bilish: ta'lim berayotgan fan yo'nalishda qo'llaniladigan zamonaviy uskunalar va texnologiyalardan xabardor bo'lish, amaliy mashg'ulotlarda texnika xavfsizligi qoidalarini qo'llay olish;</p> <p>O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq ko'nikmalar: kasbga oid maxsus uskunalarni ishlatish, laboratoriya ishlari va mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyalarini bilish;</p> <p>Raqamlashtirishga moslashuvchanlik: ta'lim jarayonini raqamlashtirishga doir ko'nikmalar - elektron testlar, interaktiv mashqlar yaratish, axborot xavfsizligi asoslari, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish qoidalarini bilish va rioya qilish;</p> <p>AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, LabVIEW, Arduino IDE  Simulyatorlar: Proteus, Multisim  1C Buxgalteriya, Excel'da formula va avtomatlashtirish  CRM tizimlari, elektron hujjat aylanmasi  Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW</p>

Kasbning nomi:	Oliy ma'lumotli o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va barcha ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<p>1) bakalavriat</p> <p>2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba</p>	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:		
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	5	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi.
	6	Tyutor
	6	Katta o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6 Ta'lim jarayonini rejalashtirish va olib borish	B1.01.6 Fan bo'yicha ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Fan bo'yicha o'quv reja va standartlarni tahlil qilish
		2. Ishchi o'quv dasturi loyahasini ishlab chiqish
		3. Mavzular bo'yicha o'quv yuklamasini belgilash
		4. Ishchi o'quv dasturini tasdiqlash uchun taqdim etish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		O'quv hujjatlarini loyihalash
		Ta'lim natijalarini aniqlash va rejalashtirish
		O'quv mazmunini tizimlashtirish
		Normativ hujjatlar bilan ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari
	Ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish talablari	
	Fan mazmuni va o'qitish metodikasi	
	Ta'lim jarayonini rejalashtirish asoslari	
	B1.02.6 Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlash
		Interaktiv metodlardan foydalanib mashg'ulotlar o'tkazish
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash
Ta'lim jarayonida innovatsion usullar samaradorligini baholash		
<b>Ko'nikmalar:</b>		
Interaktiv va innovatsion metodlarni qo'llash		
Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish		
O'quvchilar faolligini oshirish		
Ta'lim jarayonini moslashtirish		
<b>Bilimlar:</b>		
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar turlari		
Interaktiv o'qitish metodlari		
Raqamli ta'lim resurslari		
Innovatsion ta'lim yondashuvlari		
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Ta'lim jarayonini davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq rejalashtirish uchun mas'ul.	
	2. Fan bo'yicha ishchi o'quv hujjatlarining sifatli ishlab chiqilishi va yangilanilishi uchun mas'ul.	
	3. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlash va qo'llashda mustaqil qaror qabul qiladi.	
	4. Ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha tashabbus ko'rsatishda mustaqil faoliyat yuritadi.	
B2.6 Ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish	B2.01.6 Bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholash.	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Baholash mezonlarini ishlab chiqish
		2. Nazorat va baholash topshiriqlarini tayyorlash
		3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash
		4. Baholash natijalarini qayd etish

		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Baholash vositalarini qo'llash
		O'quv natijalarini aniqlash
		Xolis va adolatli baholash
		Baholash natijalari bilan ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Baholash mezonlari va usullari
		Kompetensiyaga asoslangan baholash yondashuvlari
		Ta'lim natijalari tushunchasi
		Baholashga oid me'yoriy hujjatlar
	B2.02.6 O'quv jarayoni samaradorligini tahlil qilish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. O'quv jarayoni natijalarini yig'ish
		2. Ta'lim samaradorligini tahlil qilish
		3. Tahliliy xulosalar tayyorlash
		4. Takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Tahliliy fikrlash
		Ma'lumotlarni solishtirish va umumlashtirish
		Hisobotlar tayyorlash
		Ta'lim sifatini baholash
<b>Bilimlar:</b>		
Ta'lim sifatini baholash mezonlari		
Pedagogik tahlil usullari		
Ta'lim monitoringi asoslari		
Hisobot va tahliliy hujjatlar talablari		
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini xolis baholash uchun mas'ul.	
	2. Baholash jarayonining shaffofligi va adolatligini ta'minlash uchun mas'ul.	
	3. Baholash natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha mustaqil xulosa chiqaradi.	
	4. Ta'lim natijalarini tahlil qilish va hisobotlarni tayyorlashda mustaqil faoliyat yuritadi.	
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	<p>Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter, proyektor yoki interaktiv doska, printer/skaner, smartfon yoki planshet, internet tahrirlash vositalari (Microsoft Office (Word, Excel, PowerPoint))</p> <p>Test tuzish va baholash vositalari (Google Forms, Quizizz)</p> <p>Prezentatsiya va infografika yaratish dasturlari (Canva, Prezi, Piktochart)</p> <p>Mobil texnologiyalar va ilovalardan foydalanish: Kundalik yoki boshqa elektron jurnal tizimlari; Telegram/WhatsApp guruhlari orqali talabalar bilan aloqa; Raqamli savodxonlik va xavfsizlik</p> <p>Elektron pochtdan samarali foydalanish (Gmail, Outlook)</p> <p>Mutaxassislikka oid texnologik bilimlar (<i>yo'nalishlar xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi</i>)</p>	

Kasbning nomi:	Katta o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etilmaydi	
